

“TASDIQLAYMAN”
O‘zbekiston Respublikasi
Transport vaziri



I. Maxkamov

2026-yil “19”-may

O‘zbekiston Respublikasi Transport vaziri

rahbarligida o‘tkazilgan yig‘ilish

BAYONI 110-son

2026-yil 18-may

Toshkent sh.

Raislik qildi: I.R.Maxkamov - O‘zbekiston Respublikasi Transport
vaziri

Qatnashdilar: Transport vazirligi departament, boshqarma, bo‘lim
boshliqlari hamda idoraviy mansub va soha tashkilotlari
rahbarlari va o‘rinbosarlari (ro‘yxat bo‘yicha)

KUN TARTIBI:

**O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Strategik rejalashtirish va
rivojlanish bo‘yicha muvofiqlashtiruvchi kengash yig‘ilishining 14 – son
bayoni ijrosi yuzasidan**

(Maxkamov, Abdugafarov, Gafarov, Ismailov, Irkabaev, ...)

Yig‘ilishni Transport vaziri I.Maxkamov ochib, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Strategik rejalashtirish va rivojlanish bo‘yicha Muvofiqlashtiruvchi kengashning 2026-yil 8-maydagi yig‘ilishining 14-bayoni ijrosini ta‘minlash maqsadida Transport vazirligi tizimida “Byurokrtiyani bartaraf etish – 2030” dasturini samarali amalga oshirish bo‘yicha tegishli tashkiliy va amaliy choralar belgilanayotganlini ta‘kidlab o‘tib, barcha yig‘ilish qatnashchilarini ushbu masalaga jiddiy yondashish zarurligi yuzasidan ogohlantirish berib o‘tdi.

Mazkur dastur doirasida vazirlik tizimida byurokratik to‘siqlarni qisqartirish, davlat xizmatlari va boshqaruv jarayonlarini soddalashtirish, raqamlashtirishni kengaytirish, ortiqcha tartib-taomillarni bekor qilish hamda fuqarolar va tadbirkorlik subyektlari uchun qulaylik yaratish asosiy maqsad etib belgilanishi zarurligi ta’kidlandi.

Mazkur ishlarning amalga oshirilishidan yagona maqsad byurokratiyani batamom yo‘q qilish, aholi va tadbirkorlarga yuqori darajadagi qulay, ishonchli hamda sifatli bo‘lgan xizmatlarni ko‘rsatish, davlat xizmatlarini ko‘rsatishda ortiqcha xujjat va vaqt sarflanishini oldini olish ekanligi ta’kidlab o‘tildi.

Kun tartibidagi masalalar batafsil muhokama qilinib, berilgan topshiriqlar ijrosini o‘z vaqtida va sifatli ta’minlash maqsadida, **yig‘ilish qaror qiladi:**

1. “Byurokratiyani bartaraf etish – 2030” dasturini doirasida Transport vaziri o‘rinbosari I.Abdugafarov rahbarligida **1-ilovaga** muvofiq ishchi guruh tashkil etilsin.

2. Ishchi guruh kotibi etib Strategik rejalashtirish va axborot-tahlil boshqarmasi bosh mutaxassisi Sh.Zayniddinov belgilansin.

3. Ishchi guruhning asosiy vazifalari etib quyidagilar belgilansin:

- davlat xizmatlari va boshqaruv jarayonlarini to‘liq inventarizatsiya qilish;
- ortiqcha tartib-taomillarni aniqlash hamda ularni bekor qilish, qisqartirish yoki raqamlashtirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqish;
- “Zero Bureaucracy” platformasiga taklif va ma’lumotlarni kiritib borish;
- Customer Council (Mijozlar kengashi) faoliyatini yo‘lga qo‘yish;
- xodimlarning malakasini oshirish va tizimli o‘qitish;
- dastur ijrosini ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlarda keng yoritish;
- ilg‘or tashabbuslarni rag‘batlantirish va eng yaxshi amaliyotlarni ommalashtirish.

4. Ishchi guruh a‘zolari **ikki hafta muddatda** davlat xizmatlari va boshqaruv jarayonlarini inventarizatsiya qilib, ortiqcha tartib-taomillarni qisqartirish yoki raqamlashtirish yuzasidan, shuningdek xususiy sektorga o‘tkazilishi mumkin bo‘lgan vazifalarni belgilab, aniq chora-tadbirlar rejasini ishlab chiqsin.

5. **2-ilovaga** muvofiq **“Byurokratiyani bartaraf etish – 2030” dasturi doirasida amalga oshiriladigan chora-tadbirlar bo‘yicha “yo‘l xaritasi” ijrosi yuzasidan chora-tadbirlar rejasini** da belgilangan vazifalarning o‘z vaqtida va sifatli bajarilishi, “Zero Bureaucracy” platformasiga ma’lumotlar kiritilishi hamda amalga oshirilgan ishlar bo‘yicha hisobotlarni Ishchi guruh kotibiga muntazam taqdim etilishi ta’minlansin.

6. Raqamlashtirish va sun'iy intellektni rivojlantirish bo'limi (**I.Yuldashev**):

- Transport vazirligi veb saytida maxsus "Byurokratiyani bartaraf etish – 2030" bo'limini joriy etishni;

- Davlat funksiyalari reestriga kiritish uchun vazifa va funksiyalarni raqamlashtirilganlik darajasini aniqlashni ta'minlasin.

7. Axborot xizmati (**N.Ashirmatov**):

- Transport vazirligi tizimida "Byurokratiyani bartaraf etish-2030" dasturi ijrosini ta'minlash bo'yicha Ishchi guruh tomonidan amalga oshirilayotgan ishlarni ommaviy axborot vositalari, internet nashrlar va ijtimoiy tarmoqlar orqali keng yoritishni tashkil etsin.

8. Devonxona (Raximov) mazkur bayonni barchaga yetkazilishi ta'minlansin.

9. Mazkur buyruq ijrosini nazorat qilish Transport vaziri o'rinbosari I.Abdugafarov zimmasiga yuklatilsin.

**Transport vazirligi tizimida "Byurokratiyani bartaraf etish-2030"
dasturi ijrosini ta'minlash bo'yicha ishchi guruh
TARKIBI**

Ishchi guruh raisi:

I.Abdugafarov - Transport vaziri o'rinbosari

Ishchi guruh a'zolari:

- V.V.Ismailov - Avtomobil va jamoat transporti departamenti boshlig'i
M.Mirxamidov - Xalqaro hamkorlik, logistika va reytinglar boshqarmasi boshlig'i
O.R.Irkabayev - Temir yo'l transporti boshqarmasi boshlig'i
J.X.Nazarov - Havo transporti boshqarmasi boshlig'i
R.I.Hakimov - Strategik rejalashtirish va axborot-tahlil boshqarmasi boshlig'i o'rinbosari
B.Q.Qoraboev - Yo'l xo'jaligi bo'limi boshlig'i
I.R.Yuldashev - Raqamlashtirish va sun'iy intellektni rivojlantirish bo'limi boshlig'i
S.A.Gafarov - Yuridik bo'lim boshlig'i
A.A.Suyunov - Inson resurslarini rivojlantirish va boshqarish bo'limi boshlig'i
O.Y.Mo'ydinov - Murojaatlar bo'limi boshlig'i
N.O.Ashirmatov - Axborot xizmati matbuot kotibi
J.Y.Tursunov - Avtomobil yo'llari qo'mitasi raisi
T.A.Nazarov - Fuqaro aviatsiyasi agentligi boshlig'i
J.A.Karimov - Transport nazorati inspeksiyasi boshlig'i
Z.G.Narzullaev - "O'zbekiston temir yo'llari" AJ Boshqaruvi raisi
Sh.Sh.Xudaykulov - "Uzbekistan Airways" AJ Boshqaruvi raisi
J.O.Umarxodjayev - "Uzbekistan Airports" AJ Boshqaruvi raisi
A.M.Xujanov - "Toshshahartransxizmat" AJ Boshqaruvi raisi
R.D.Usmanov - "Toshkent metropoliteni" DUK boshlig'i
D.I.Djumayev - "O'zaeronavigatsiya" Markazi DUK direktori
U.M.Iminov - Avtomobil tashuvlarini tashkil etish, litsenziyalash va ruxsatnoma berish boshqarmasi boshlig'i
Sh.G.Xodjiev - Raqamli transport markazi direktori
D.R.Rasulov - "Uzavtovokzal Servis" MChJ direktori
M.J.Suyunov - "Uzavtotrans Servis" MChJ bosh direktori
- Ishchi guruh kotibi:**
Sh.Z.Zayniddinov - Strategik rejalashtirish va axborot-tahlil boshqarmasi bosh mutaxassisi

Izoh: *Ishchi guruh a'zolari boshqa ishga o'tganda yoki vazifasidan ozod etilganda ularning o'rniga tayinlangan xodim Ishchi guruh a'zosi hisoblanadi.*

Ishchi guruh a'zolari vaqtincha mehnat faoliyatida bo'lmagan davrda (mehnat ta'tili, mehnatga layoqatsizlik davri va boshq.) ularning vazifasini vaqtincha bajaruvchi xodim Ishchi guruh a'zosi hisoblanadi.

**“Byurokratiyani bartaraf etish – 2030” dasturi doirasida amalga oshiriladigan
chora-tadbirlar bo‘yicha “yo‘l xaritasi” ijrosi yuzasidan
CHORA-TADBIRLAR REJASI**

T/r	Chora-tadbir nomi	Amalga oshirish mexanizmlari	Ijro muddati	Mas’ul ijrochilar
1.	Transport vazirligining vazifa va funksiyalarini qayta ko‘rib chiqish	Transport sohasida ko‘rsatiladigan barcha Davlat xizmatlarini to‘liq xatlovdan o‘tkazish	22-may	Strategik rejalshtirish va axborot-tahlil boshqarmasi (<i>Xakimov</i>)
2.	Vazifa va funksiyalarini raqamlashtirish darajasini aniqlash	Xatlov natijalariga ko‘ra har bir Davlat xizmatlarini raqamlashtirilganligini aniqlash	26-may	Raqamlashtirish va sun’iy intellektni rivojlantirish bo‘limi (<i>Yuldashev</i>)
3.	Transport vazirligi va tizim tashkilotlari tomonidan ko‘rsatiladigan xizmatlarni qayta ko‘rib chiqish	Ko‘rsatilayotgan xizmatlarni soddalashtirish, ananaviya tarzda ko‘rsatilayotgan xizmatlarni raqamlashtirish, majburiy talablarni qisqartirish hamda ayrim vazifa va funksiyalarni xususiy sektorga o‘tkazish bo‘yicha takliflar ishlab chiqish	10-iyun	Avtomobil va jamoat transporti departamenti (<i>Ismailov</i>), Temir yo‘l transporti boshqarmasi (<i>Irkabaev</i>) Havo transporti boshqarmasi (<i>Nazarov</i>), Yo‘l xo‘jaligi bo‘limi (<i>Qoraboev</i>), Transport nazorati inspeksiyasi (<i>Karimov</i>),

T/r	Chora-tadbir nomi	Amalga oshirish mexanizmlari	Ijro muddati	Mas'ul ijrochilar
				Fuqaro aviatsiyasi agentligi (Nazarov)
3.	Transport vazirligi va tizim tashkilotlarida Zero Bureaucracy platformasini samarali ishlashini tashkil etish	Har bir tashkilot uchun shaxsiy kabinet ochish va ma'lumotlarni kiritilishini tashkil etish	1-iyul	Raqamlashtirish va sun'iy intellektni rivojlantirish bo'limi (Yuldashev)
4.	Ommaviy tashabbus va raqobat muhitini shakllantirish	Aholi va biznes vakillarining eng samarali takliflarini inobatga olgan holda amaliyotga joriy etish choralari ko'rish.	yil davomida	Ishchi guruh (Abdugafarov)
5.	Axborot va tartibot ishlarini kuchaytirish	1. Ommaviy axborot vositalari, internet nashrlar va ijtimoiy tarmoqlar orqali dastur doirasidagi islohotlarni keng yoritishni tashkil etish. 2. Blogerlar, inflyuenserlar va jamoatchilik faollari bilan hamkorlikda axborot kampaniyalarini amalga oshirish.	yil davomida	Axborot xizmati (Ashirmatov)
6.	Transport vazirligi va tizim tashkilotlari veb saytida "Byurokratiyani bartaraf etish – 2030" bo'limini yaratish choralari ko'rish	Veb saytda "Byurokratiyani bartaraf etish – 2030" bo'limini yaratish	yil davomida	Raqamlashtirish va sun'iy intellektni rivojlantirish bo'limi (Yuldashev)